



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

SOVET HOKIMIYATINING SURXONDARYO OKRUGIDA OLIB BORGAN SIYOSATINI O'RGANISHGA DOIR AYRIM MANBALAR

Davlatova Shoira

Termiz davlat universiteti, o'qituvchi (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada Surxondaryolik tarixchi olimlarning ilmiy merosi tahlil qilinib, Surxondaryo viloyati tarixini o'rganishda manbashunoslik nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega bo'lgan ayrim asarlar atroflicha ko'rib chiqiladi. Muallif tomonidan ushbu kitoblarning mazmuni, ilmiy qiymati, tarixiy manba sifatidagi o'rni hamda ularning hudud tarixini yoritishdagi ahamiyati tahliliy yondashuv asosida ochib berilgan. Shuningdek, maqolada mazkur asarlardan foydalanishning metodologik jihatlari ham yoritilib, ularning zamonaviy tarixshunoslikdagi o'rni baholanadi.

Kalit so'zlar: sovet hokimiyati, mustabid tuzum, okrug, tarixshunoslik, milliy chekka o'lkalar, boshqaruv apparati, yevropalashtirish, mahalliy millat.

НЕКОТОРЫЕ ИСТОЧНИКИ ПО ИЗУЧЕНИЮ ПОЛИТИКИ СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ В СУРХАНДАРЬИНСКОМ ОКРУГЕ

Давлатова Шоира

Термезский государственный университет, преподаватель (PhD)

Аннотация

В данной статье анализируется научное наследие историков Сурхандарьинского региона, а также подробно рассматриваются отдельные труды, которые могут быть использованы в качестве источников по изучению истории Сурхандарьи. Автор раскрывает содержание этих книг, их научную ценность, значение как исторических источников и их роль в освещении региональной истории. Кроме того, в статье освещаются методологические аспекты использования данных трудов и определяется их место в современной историографии.

Ключевые слова: советская власть, авторитарный режим, округ, историография, национальные подокруга, административный аппарат, европеизация, местная национальность.

SOME SOURCES FOR THE STUDY OF THE POLICY OF THE SOVIET GOVERNMENT IN THE SURKHANDARYA DISTRICT

Davlatova Shoira

Termez State University, Lecturer (PhD)

Abstract

This article analyzes the scholarly heritage of historians from the Surkhandarya region and examines a number of works that can serve as important sources for studying the history of Surkhandarya. The author provides a detailed analysis of the content of these books, their academic value, their role as historical sources, and their contribution to understanding regional history. In addition, the article discusses methodological aspects of using these works and evaluates their place in modern historiography.

Keywords: Soviet power, authoritarian regime, district, historiography, national outlying regions, administrative apparatus, Europeanization, local nationality.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach ijtimoiy-gumanitar fanlar tarixshunosligida butunlay yangi davr boshlandi. Vatanimiz tarixi, xalqimiz, ajdodlarimiz o'tmishi va ayanchli taqdiri bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina voqealarni real yoritishga erishdik. Tilimizga, dinimizga qaytdik, ma'naviy merosimizni qayta tikladik. Sovet davlatining qatag'on siyosati davrida turli jazolarga giriftor etilib, bu yorug' olamda yashashdan mosuvo qilingan ajdodlar xotirasini yodga olyapmiz. Bu jarayonlar "O'zbekiston tarixi" fani tarkibida o'lka tarixini o'rganishga katta e'tibor berishni taqozo etmoqda. Shu o'rinda XX asrning 20-yillarida sovet hokimiyati tomonidan Surxondaryo okrugida olib borilgan siyosatning asl mohiyati, mustabid tuzumining Turkiston o'lkasida, jumladan, Surxondaryo okrugida sovet hokimiyatini o'rnatish va mustahkamlash, ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan sovet andozasi asosidagi boshqaruv tizimini shakllantirish borasida olib borgan chora-tadbirlarini "O'zbekiston tarixi" fani tarkibida arxiv hujjatlari va bir qancha surxondaryolik tarixchi olimlarning voha tarixiga oid yozgan kitoblari asosida o'rganish mumkin. Mazkur hujjatlarda o'lkada hukmronlik qilgan kommunistik partiya, boshqaruv tizimi

sifatida u tomonidan qabul qilingan qarorlar, rezolyutsiyalar, o'tkazilgan syezdlar, plenumlar, bu tadbirlarda belgilangan rejalar, O'zbekistonda okruglarning tashkil qilinishi, ularni tashkil etilishiga doir muhokama, ko'rsatma va buyruqlar, lenincha milliy siyosatni amalga oshirish uchun belgilangan chora-tadbirlar to'g'risida qimmatli manbalar o'z ifodasini topgan.

Mustaqillik yillarida Surxondaryoning taniqli tarixchi olimlari S.Tursunov, E.Qobulov, T.Pardayev, O.Isayev, I.Umarov va boshqalar tomonidan yozilgan kitoblarda muammoning ayrim jihatlari yoritilgan. Xususan, S.Tursunov, E.Qobilov, T.Pardayev va B.Murtazoyevlar tomonidan 2001-yilda "Sharq" nashriyotida chop etilgan "Surxondaryo – tarix ko'zgisida" deb nomlangan kitobning "Milliy kamsitish va qatag'onlik yillarida vohadagi ijtimoiy-siyosiy holat" deb atalgan qismida Oktyabr inqilobidan keyin sovet hokimiyatining milliy chekka o'lkalarda, jumladan, Surxondaryoda olib borgan siyosati haqida quyidagi ma'lumotlarni olish mumkin: "Oktyabr to'ntarishining dastlabki kunlaridayoq Rossiyaga tobe bo'lgan chekka o'lkalarning ajralib ketishiga yo'l qo'yimaslik maqsadida faol boshlangan bolshevistik kurash o'z natijalarini bir narsada yaqqol ko'rsatdiki, hatto eng oddiy boshqaruv hokimiyati vazifalarini ham mahalliy vakillarga bermaslik, go'yoki ular savodsiz, siyosat va iqtisoddan xabarsiz, ularga davlat ishlarini boshqarishni ishonib topshirib bo'lmaydi, degan markaz "shiori" o'rtaga tashlandi[1].

Asosiy vazifa XX asrning 20-yillaridan boshlab boshqaruv apparatini yevropalashtirish g'oyasi bilan bog'landi. Eng achinarlisi shunda ediki, ish yuritayotgan yevropalik rahbarlarning ko'pchiligi hech qanday siyosiy, iqtisodiy bilimga ega emasdi. Mahalliy millatdan olingan vakillar qisman yevropacha tilni tushunganligi va topshiriqlarni so'zsiz bajarayotganligi uchun ham bu lavozimda turgan edilar". Bu manbada ish joylarida yevropaliklar nufuzining ko'payib borganligi xususida yana: "20-yillarning oxiriga kelib Surxondaryoga ham yevropalik vakillarni jo'natish va ishonchli hokimiyatni vujudga keltirish maqsadi amalga oshirildi. Surxondaryoda bu holatni quyidagi manbalarda ko'rish mumkin: xo'jalik, savdo va kooperativ ishlarda jami 50 kishi ishlagan bo'lsa, shundan 20 foizini, ma'muriy ishlar – militsiya, sud, prokuratura ishlarida jami 44 kishi ishlagan bo'lsa, shundan 17 foizini, paxtachilik, yer ishlari va sug'orish ishlarida jami 26 kishi ishlagan bo'lsa, shundan 10 foizini, iqtisod-soliq ishlarida jami 4 kishi ishlagan bo'lsa, shundan 2 foizini, madaniy va ma'rifiy ishlarda jami 9 kishi ishlagan bo'lsa, shundan 4 foizini, boshqa javobgarlik ishlarida jami 21 kishi ishlagan bo'lsa, shundan 8 foizini, partiyasiz ishchilarning jami 3 foizini mahalliy millat vakillari tashkil etgan edi", – degan fikrlar ham o'rin olgan. Kitobda: "Sovetlar agrar siyosatining asosiy maqsadi mahalliy hududlarda qishloq xo'jaligini rivojlantirish, moddiy-texnika ta'minotini yaxshilash emas, amalda mahalliy aholini ta'qib ostiga olish, qishloq xo'jaligini yaxshi biladigan kishilarni quvg'in qilish edi. 1927–1930-yillarda bunday holat Surxondaryoda kuchayib, Sariosiyo tumanidagi So'fiyon qishloq sovetidan 2 kishi, Uzun qishloq sovetidan 47 kishi, Gazar qishloq sovetidan 3 kishi, Sangardak qishloq sovetidan 10 kishi, Dashnobod qishloq sovetidan 9 kishi, Telpakchinor qishloq sovetidan 6 kishi, Xufor qishloq sovetidan 5 kishi, Tortuvli qishloq sovetidan 5 kishi quloq sifatida Sibirga surgun qilindi. Mahalliy aholini ommaviy quloq qilish, mol-mulkini talash, ko'zga ko'ringan dehqonchilik ilmini yaxshi bilganlarni otib tashlash, bo'hton uyushtirib, hibsga olishlar kuchayib bordi. Mahalliy xalqni ko'plab yo'qotish, dehqonlarning ko'zini qo'rqitish maqsadida oilaviy quloq qilish nihoyatda ko'paydi", kabi ma'lumotlar ham bayon qilingan[2].

S.Tursunov, A.Tursunov, M.Tog'ayevalar tomonidan 2014-yilda "Yangi nashr" nashriyotida bosilgan "Sherobod tarixidan lavhalar" kitobida sovet hokimiyatining yuritgan siyosati to'g'risidagi ma'lumotlardan ham monografiyani yozishda foydalanildi. Aynan mazkur kitobda: "O'zbekistonda sovet hokimiyatining o'rnatilishi jamiyat taraqqiyoti yo'nalishlariga to'siq bo'lgan omillarning vujudga kelishiga hamda milliy qadriyatlarni, urf-odatlarini tahqirlashga yo'l ochib berdi. Milliy o'zlik, milliy madaniyat, xalqimizning ma'naviy dunyoqarashi kamsitildi, milliy mutaxassislar, ziyolilar hamda vatan manfaatlarini himoya qiluvchi hur fikrli kishilar ta'qib ostiga olindi. Eng achinarlisi, ular o'z vatanlaridan quvg'in qilinib, quloq qilinish va surgun etilish orqali ayanchli hayot qismatiga tortildi. "Qishloq burjuaziyasi", "aksilinqilobchilar", "xalq dushmanlari", "sotsializm dushmanlari", "kolxoz dushmanlari" degan haqoratimiz salbiy nomlar bilan minglab vatandoshlar musofirlikda kun kechirib, bir umr vatanini qo'msab yashadi[3].

Sherobodda ham nohaq otilgan, qamalgan, begona yurtlarda fojiali hayot kechirgan vatandoshlarimiz soni nihoyatda cheksiz edi. Sovet davlatining O'zbekistonda 1925–1930-yillarda zo'ravonlik siyosati bilan o'tkazilgan kolxozlashtirish va u bilan bog'liq tarzda quloq qilish, surgun qilish jarayoni hamda uning fojiali oqibatlari ham tarix sahifalarida o'z aksini topdi. Markazdan kelgan ish o'rgatuvchilar, kolxoz tuzumini nazoratga oluvchilar mahalliy xalqni qirish, bo'ysunmaganlardan o'ch

olish, urf-odatlarini kamsitish orqali siyosat yuritdi”, degan mulohazalar bildirilganki, ular orqali Sherobodda ham mahalliy millat vakillariga nisbatan sovet hokimiyati turli tazyiqlarga asoslangan siyosat olib borganligini yaqqol anglash mumkin. Bu manbalarda keltirilgan fikrlar markazdan Surxondaryo okrugiga yuborilgan kadrlar o’lkada yuritgan zo’ravonlik siyosatining mohiyatini yoritishga xizmat qiladi.

S.Tursunov, O.Soatov, I.Umarovlar hammuallifligida 2023-yilda yozilgan “Shahid ketgan qatag’on qurbonlari xotirasi abadiy” (1920–1938 yy.) kitobida sovet hokimiyati o’rnatilgandan keyin uning sovetlashtirish, partiyalashtirish, “bosmachilik”ka qarshi kurash, jamoalashtirish, industrilashtirish, “dinsizlashtirish”, ruslashtirish siyosatidan norozilik Surxondaryo aholisi orasida ham shakllanganligi, bolsheviklarning bu tadbirlariga qarshi chiqqan yoki ularning g’oyasini qo’llab-quvvatlamagan kishilar turli azoblarga giriftor qilingani, bedarak yo’qolganligi, qamoqqa olingani, surgun qilingani, o’z vatanlarini tark etib, boshqa yurtlarga qochib ketishga majbur bo’lganliklari to’g’risida batafsil ma’lumotlar keltirilgan. Kitob asosan arxiv hujjatlari asosida tayyorlangan bo’lib, unga ana shunday jazolarga tortilgan ko’plab surxondaryoliklarning ismi-shariflari ro’yxati kiritilgan[4]. O’sha davrdagi holat haqida kitobda shunday ma’lumotlarni uchratish mumkin: “1917–1918-yillarda Sovet hokimiyati tub ellatlarni boshqaruvga umuman yaqin yo’latmadi. Jumladan, Termiz Sovetida birorta ham tub aholi vakili yo’q edi. Bunday bo’lishiga rus bolsheviklarining shovinistik qarashlari sabab bo’ldi. Bolsheviklar musulmon aholisini mensimas, ularga nisbatan zo’ravonlik bilan ish yuritardi. Termizda bolsheviklarning Buxoro amirligi aholisi bilan to’qnashuvlari tez-tez sodir bo’lib turdi.

Mavzuda qayd etilgan fikrlarga ko’ra, 1918-yilning 2-martida Turkiston XKS raisi F.Kolesovning Buxoroga qarshi yurishidan so’ng vaziyat keskin o’zgardi. 1918-yil martida amirning buyrug’i bilan Kogondan Termizgacha bo’lgan temir yo’llar buzdirilib, Toshkentdan uzib tashlandi. Shaharda oziq-ovqat va uy-ro’zg’or mollarining yetishmovchiligi yuzaga keldi. Sarosimaga tushib qolgan rusiyabon aholi shaharni ommaviy ravishda tark eta boshladi. 1918-yil yozida shaharda taxminan 300–400 oila qolgan bo’lib, ularning umumiy soni ming kishidan ko’proq edi[5].

Manbada: “Sovet hukumati xalqni o’z tomoniga og’dirib olish yo’lini tutib, kambag’al tabaqalarni ko’proq siyosiy hayotga jalb etishga kirishdi. 1921–1922-yillarda Surxondaryo vohasida ilk sovet va partiya qo’mitalari tuzilib, hokimiyatni mustahkamlash uchun bir qator ishlar amalga oshirildi. Chunonchi, 1921-yilning yanvar oyida Boysunda inqilobiy boshqaruv qo’mitalari tashkil etilib, qo’mita asosan ichki dushmanlarni tugatish, sovet hokimiyatini to’liq o’rnatishni ta’minlashni o’z oldiga maqsad qilib oldi. Sovetlarning VCHK, GPU, OGPU bo’linmalari vohada josuslik harakatlarini kuchaytirish, mahalliy aholini qamoqqa olish va qirib tashlash bilan shug’ullandi”, singari fikrlar ham mavjud.

Kitobdan joy olgan rasmiy ma’lumotlarga asosan, faqat 1923-yil noyabridan 1925-yil boshiga qadar Buxoro Respublikasi hududida milliy harakat qatnashchilaridan 4961 kishi o’ldirilgan, 3307 kishi asirlikka olingan.

Surxondaryolik tarixchi olim O.Isayevning 2022-yilda chop etilgan “Surxon vohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar (1925–1941 yy.)” monografiyasida mustabid tuzum siyosatiga shunday ta’rif beriladi: “Sovet siyosati zo’ravonlikka asoslangan bo’lib, mahalliy aholini sinflarga bo’lish g’oyasini ishlab chiqdi. Unga ko’ra, mamlakatda “quloq”, “boy”, “ruhoniyy”, “ziyoli”, “kambag’al”, “batrak” degan yangi atamalar paydo bo’ldi. Yangi sotsialistik siyosatni amalga oshirish uchun faqat kambag’al va batraklar hamda ularning oilasi kerak edi. Sovet davlati jamiyatda hamma teng huquqli, endilikda boy, kambag’al degan so’zlarga barham beriladi, deb ishontirib, oddiy mehnatkashlar ko’magida mulkdorlar sinfiga barham berishga harakat qildi.

O.Isayev tomonidan keltirilgan ma’lumotlarga ko’ra, 1925–1941-yillarda Surxon vohasida sovet hukumatining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy mavqei mustahkamlandi. Sovet hukumati va hukmron kommunistik partiya ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida o’zining mafkuraviy ta’sirini o’tkazib bordi. Ayniqsa, bu jarayon kishilar ongini o’zgartirishda muhim omil bo’lib hisoblanadigan ta’lim, ilm-fan va madaniyat sohasida jiddiy tus oldi. Tadqiq qilingan yillarda ta’lim, ilm-fan va madaniy hayotdagi barcha ishlar siyosiy manfaatlariga xizmat qilgan. Sovet davlatining maqsadi erkparvar milliy ziyolilar qatlamini yo’q qilish va xalqning “savodxonlik” darajasini o’stirish orqali sotsialistik tuzumga sodiq yangi ziyoli kadrlarini shakllantirish hamda byurokratik boshqaruv tizimini mustahkamlashdan iborat bo’lgan[3].

Sovet hukumatining bosh g’oyasi – qattiq mafkuraviy nazoratni o’rnatishdan iborat bo’lib, bunda umumiy boshlang’ich ta’limni joriy etish va savodsizlikni tugatish kabi islohotlar oldingi o’rinda turardi. Vohada yangi ochilgan sovet maktablari o’qituvchi kadrlarga muhtoj bo’lsa-da, eski usul maktablarida faoliyat yuritgan muallimlar xizmatidan foydalanilmadi, aksincha, ularga nisbatan dushmanlik ko’zi bilan qaraldi. Sovet mafkurasini xalq ommasi ongiga singdirishda yangi sovet maktabi tizimidan foydalanildi.

Tadqiq etilgan davrda sovet davlati siyosatining o'ziga xos jihatlaridan biri shu ediki, juda katta hududdagi turli millat vakillarini "yagona sovet xalqi" degan nom ostida birlashtirish maqsadi qo'yilgan edi. Sovet hokimiyati va uning bolsheviklar partiyasi o'z faoliyatining dastlabki davrlaridan boshlab milliy chekka hududlarda ham sotsialistik jamiyatni qurish uchun turli millat va elat xalqlarini kommunistik partiyaning mafkuraviy siyosatiga bo'ysundirish asosida "yagona sovet xalqi"ni shakllantirishga qat'iyat bilan kirishdi hamda bu borada bir qancha chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Dastlabki yillarda madaniyat va uni boshqarish jabhalarida sovet hukumati mahalliy aholining urf-odatlarini hisobga olishga majbur bo'ldi. Birinchi galda e'tibor ular tomonidan savodsizlikda ayblangan mahalliy aholining savodxonligini oshirishga qaratildi[6].

Sovet hokimiyati o'rnatilgan dastlabki davrda vohada jami 6 ta maktab faoliyat olib borgan. Ularda bor-yo'g'i 500 kishi tahsil olgan bo'lib, shundan 250 nafari mahalliy millat vakillari bo'lgan. Lekin o'sha yillarda an'anaviy maktablar ham o'z faoliyatini davom ettirgan va ularda 1000 kishiga yaqin mahalliy xalq farzandlari ta'lim olgan. 1925-yilda ta'lim tizimida ma'lum darajada bo'lsa-da, eski maktablar faoliyatiga ruxsat berilgan edi. Asta-sekinlik bilan sovet maktablari soni o'sib bordi. Qisqa vaqt ichida yangi maktablar soni 10 taga yetib, undagi o'quvchilar soni 597 nafarni tashkil etgan. Shulardan 260 nafari mahalliy millat vakillaridan iborat edi.

Dastlabki paytlarda sovet maktablarida faqat dehqon va batrak aholi vakillari o'qishi ko'zda tutilgan. Biroq maktablarda, asosan, yevropa millatiga mansub aholining farzandlari tahsil olganlar. Fikrimizning isboti sifatida 1925–1926-yillarga tegishli statistik ma'lumotlarda o'quvchi o'g'il bolalarning 1,6 foizini o'zbeklar, 2,9 foizini tojiklar, 75,7 foizini rus millatiga mansub bolalar tashkil qilgan. Qizlar orasida esa 0,1 foizini o'zbeklar, 0,1 foizini tojiklar, 54,2 foizini rus millatiga mansub o'quvchilar tashkil etgan[5].

Manbalarda Surxondaryo okrugi targ'ibotchilar kengashining 1928–1929 o'quv yiliga tayyorgarlik masalalariga bag'ishlangan maxsus kengaytirilgan majlisi haqidagi ma'lumotlar berilgan. Unda okrugda maktab qurilishini jonlantirish, mavjud maktablarni joriy ta'mirdan chiqarish va bunda davlat mablag'i bilan birga aholining yordamidan ham foydalanish, tumanlarda har xil millat vakillari istiqomat qilishini e'tiborga olib, turkman va tojik maktablarini joriy qilish haqidagi masalalar ko'rib chiqildi. Shu asosda Pattakesar tumanida turkman maktabi, Boysun hamda Sariosiyo tumanlarida tojik maktablari tashkil qilindi. Ushbu maktablar ta'minotini davlat o'z zimmasiga oldi, singari ma'lumotlar ham joy olgan.

O.Isayevning monografiyasida yoritilgan manbalar orqali 1924–1930-yillar oralig'ida respublikada hujjat yuritish ishlari ikki tilda olib borilganligi, mahalliy aholiga mansub xodimlar sovet maktabi ochilgunga qadar an'anaviy maktablarda ta'lim olganligi, yangi tilni o'zlashtirish esa sust borayotganligini ham bilib olish mumkin[3].

Olim o'z tadqiqot ishida sovet boshqaruv tizimining Surxondaryoda ijtimoiy sohada amalga oshirilgan ishlari xususida to'xtalib, XX asr boshlarida Surxon vohasi Buxoro amirligi tarkibida bo'lganligi, sog'liqni saqlash tizimiga deyarli e'tibor qaratilmaganligi, mahalliy aholi asosan xalq tabobati xizmatidan, vohaning Rossiya imperiyasi tarkibida bo'lgan, rusiyabon kishilar istiqomat qiladigan qismida esa asosan harbiy shifokorlar xizmatidan foydalanilganligi, sovet hokimiyatining dastlabki yillarida asosiy diqqat iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgani holda aholi salomatligi bilan aloqador ishlar talab darajasida bo'lmaganligini ta'kidlaydi. Bu haqda monografiyada shunday izohlar kiritilgan: "Respublika aholisining salomatligini muhofaza qilish jarayonlari bu davrda bir xilda kechmadi. 1924-yilda hozirgi O'zbekiston hududida 2135 o'ringa mo'ljallangan 53 ta kasalxona ishlab turar edi. Shuningdek, yana 185 ta ambulatoriya va feldsherlik punktlari ham faoliyat ko'rsatgan. Biroq ular, asosan, shaharlarda joylashganligi bois shahar aholisiga xizmat qilar, qishloq aholisi esa aslida barqaror tibbiy xizmat ko'rsatish doirasidan chetda qolgan edi[1].

Dastlabki davrda vohada tibbiy xizmatning yo'lga qo'yilishi mahalliy aholining sog'lig'ini saqlash uchun emas, balki ko'proq bu yerda ish olib borgan yevropaliklar hamda harbiylar salomatligini nazorat qilish uchun amalga oshirilgan edi. Okrug sog'liqni saqlash bo'limi mudiri lavozimida faoliyat olib borgan A.Shevalovichning ma'ruzasidan shuni bilish mumkinki, okrugdagi birinchi kasalxona 10 o'rinli bo'lib, 1924-yil may oyida tashkil topgan. Sog'liqni saqlash bo'limida 1925–1926-yillarda bor-yo'g'i 7 kishi faoliyat yuritgan edi. Bular – sog'liqni saqlash bo'limi mudiri, davolash bo'limi mudiri, sud-tibbiy ekspertiza xodimi, ish yurituvchi, hisobchi, sanitar shifokor, idora xizmatchisidan iborat edi".

Muallif kitobida 1920-yillarda Surxondaryo okrugida tibbiy madaniyat ancha pastligi va malakali mutaxassislar soni juda kamligi, davolash muassasalari hamda chekka qishloqlardagi tibbiy punktlarni

tibbiy ma'lumotga ega bo'lgan xodimlar bilan ta'minlash bosh masala ekanligi, tibbiyot xodimlari orasida mahalliy millatga mansub shifokorlarni tayyorlash ishi kun tartibidagi eng muhim masalalardan biri bo'lib turganligi, 1926–1927-yillarda Surxondaryo okrugi markaziy shifoxonasining tibbiyot xodimlari orasida bitta ham o'zbek millati vakili bo'lmaganligi, shuning uchun ham ko'p hollarda mahalliy aholi shifoxonaga kelmaganligi, kelgan taqdirda ham salomatligi haqidagi shikoyatini to'liq bayon qila olmaganligi to'g'risidagi manbalar o'rin olgan[2].

Kitobda yana 1927-yilda Pattakesar tumani sog'liqni saqlash boshqarmasi kotibasi E.Yegorovani kurortga jo'natish haqida qaror qabul qilinib, kurortda davolanish mablag'i davlat byudjetidan qoplanishi belgilanganligi, bunday imkoniyatdan asosan rusiyazon aholi hamda mahalliy rahbarlar foydalanganliklari xususidagi fikrlar ham bayon etilgan.

Surxondaryoning taniqli tarixchi olimlari S.Tursunov va E.Qobulovlar hamkorligida 2020-yilda chop etilgan "Surxondaryo tarixi" nomli o'quv qo'llanmaga kiritilgan "Vohada mustabid tuzum hukmronligi va unga qarshi milliy ozodlik harakatlari" mavzusida o'lkada sovet hokimiyatining o'rnatilishi oqibatida yuzaga kelgan siyosiy holat tahlil qilingan. Mualliflarning sharhlariga ko'ra, "Sovetlar siyosatining Surxon vohasiga kirib kelishi keskin kurash sharoitida amalga oshdi, mahalliy xalqning asosiy qismi bu yangi hokimiyatni norozilik bilan kutib oldi. Buxoro amirligi davrida katta harbiy, iqtisodiy, siyosiy mavqega ega bo'lgan Surxon vohasini sovetlar hukumati o'z qo'lida mahkam saqlab qolishga jiddiy kirishadi. U oddiy mehnatkash xalqni zudlik bilan o'z tomoniga og'dirib olish maqsadida xalqqa bepul, o'ylaganidan ortiqcha mulk va'da qilib, ishlab chiqarish quroliga ega bo'lmagan, huquqiy tushunchasi yo'q, siyosiy bilimlarni yetarli egallab olmagan xalqni o'z siyosati doirasiga kiritib oladi. Natijada sovet hukumati milliy xususiyatlarni chuqur o'rganib, ichki ziddiyatlardan foydalanishga, qarindosh-urug'larni, milliy-etnik guruhlarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yishga harakat qiladi. Bundan siyosiy manfaatlar yo'lida ustalik bilan foydalanadi". O'sha davrda O'zbekistonning boshqa hududlarida olib borilgani singari Surxondaryoda ham sovet hukumati zo'ravonlik siyosatini mualliflar quyidagicha izohlashadi: "Bu siyosat tufayli 20-yillarda vohaning minglab aholisi qattiq siquv ostiga olinib, bir qismi qatag'onlik siyosati bilan surgun qilinib, ikkinchi qismi esa qirib tashlanadi. Xalqning asosiy qismi esa quruq va'dalar ta'siri ostida sovetlarning noto'g'ri siyosatiga ergashib ketadi"[5]. S.N.Tursunov, A.Q.To'xtayev, Z.M.Annayevalar tomonidan yozilgan "Jarqo'rg'on tarixidan lavhalar" kitobida Surxondaryo okrugidagi Jarqo'rg'on tumanida XX asrning 20-yillarida sovet hokimiyatining olib borgan siyosati ham yoritilgan. Unda 1924-yilning 12-iyulida VKP(b) Markaziy Komitetining "O'rta Osiyo respublikalarida milliy chegaralanish o'tkazish to'g'risida"gi qarori asosida Surxondaryo O'zbekiston SSRning Buxoro viloyati tarkibiga okrug sifatida kiritilgani qayd etiladi. Oradan ikki yil o'tgach, 1926-yilning 29-sentyabrida Jarqo'rg'on tumani tashkil topib, 1926-yilda Surxondaryo vohasida 18 433 nafar aholi, Jarqo'rg'on tumanida esa 21 387 nafar aholi istiqomat qilganligi aytiladi [1]. Kitobdagi ma'lumotga ko'ra, ko'plab yer egalari majburiy tortib olish siyosatidan qo'rqib, o'z mol-mulkini sovet davlatiga topshirdi hamda sovet hukumati xizmatiga o'tdi. Lekin, 1926-yildan boshlangan stalincha sotsializm qurish siyosati boshqa joylarda bo'lgani kabi Jarqo'rg'on tumanida ham og'ir kechdi. Mahalliy millatning ko'plab faol kishilari qamoqqa olinib, tuhmat yo'li bilan qirib tashlandi yoki qiynoq ostiga olinib, boshqa joylarga surgun qilindi [4].

Xullas, Surxondaryo okrugida sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan tadbirlar bir qancha tarixchilar tomonidan yoritilgan. Ularning fojiali oqibatlari, mulkdorlarga qarshi kurashish, ularning mol-mulkini majburiy musodara qilish, okrugda jamoalashtirish, yangi sovet maktablarini, tibbiyot birlashmalarini tashkil qilish, ularni kadrlar bilan ta'minlash muammolari to'g'risidagi fikrlarni Surxondaryo okrugi va uning tarkibidagi barcha tumanlar tarixi haqidagi adabiyotlarda ko'rish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Tursunov S.N., To'xtayev A.T., Annayeva Z.M. Jarqo'rg'on tarixidan lavhalar. – Toshkent: Yangi nashr, 2019. – B. 61.
2. Tursunov S., Soatov O., Umarov I. Shahid ketgan qatag'on qurbonlari xotirasi abadiy (1920–1938 yy.). – Toshkent: Yosh avlod matbaa, 2023. – B. 8–11.
3. Isayev O. Surxon vohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar (1925–1941 yy.). – Termiz: Kitob nashr, 2022. – B. 42, 78–79, 84.
4. Tursunov S., Qobilov E., Pardayev T., Murtazoyev B. Surxondaryo – tarix ko'zgisida. – Toshkent: Sharq, 2001. – B. 141–142.
5. Tursunov S., Qobilov E. Surxondaryo tarixi. – Toshkent: Tafakkur, 2020. – B. 183.
6. Tursunov S., Tursunov A., Tog'ayeva M. Sherobod tarixidan lavhalar. Toshkent: Yangi nashr, 2014. B. 231.